


**SURXONDARYO VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2020-yil yanvar-fevral)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1630,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 140,4 mlrd. so'mni (2,6 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari tovar aylanmasi 1490,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 219,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning Termiz shahridan boshga (1,0 % ga kamaygan) barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Denov (8,4 %), Termiz (7,4 %), Sariosyo (6,4 %), Sherobod (6,2 %), Uzun (5,0 %), Boysun (4,3 %) va Angor tumanlarida (4,2 %) qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga kamaydi va 140,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 1490,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,4% ni tashkil etib, bu sektor bo‘yicha Muzrabot (98,8 %), Uzun (98,0 %), Sho‘rchi (97,1%) va Denov (96,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 8,6% ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (28,3 %), Termiz (17,7 %) va Sherobod tumanlarida (6,3%) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Denov tumani (21,1%), Termez sh. (18,9 %), Sho‘rchi (8,5 %), Muzrabot (6,3 %) va Jarqo'rg'on (5,4 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o’sishiga ijobjiy ta’sir ko’rsatdi.

**Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar
aylanmasining ulushi, foizda**





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	140,4	97,4	1490,0	104,5
Termiz Sh.	87,5	87,1	221,1	104,6
Oltinsoy	3,1	97,0	83,5	103,4
Angor	2,9	95,3	61,6	104,6
Boysun	3,0	128,3	67,4	103,4
Muzrabot	1,2	167,7	101,8	102,5
Denov	10,6	134,7	332,9	107,7
Jarqo`rg`on	5,1	97,8	82,1	102,5
Qumqo`rg`on	2,7	103,4	75,0	103,7
Qiziriq	2,8	101,7	77,0	102,5
Sariosiyo	3,8	159,8	74,1	104,5
Termiz	6,9	122,5	32,2	104,6
Uzun	1,4	224,9	68,0	103,9
Sherobod	5,3	140,0	79,1	104,5
Sho`rchi	4,1	116,1	134,2	102,4

2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 634,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7



% ga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	634,4	102,7
Termiz Sh.	2126,8	98,6
Oltinsoy	503,5	102,0
Angor	498,5	103,0
Boysun	598,1	103,1
Muzrabot	744,1	102,0
Denov	914,3	107,1
Jarqo'rg'on	409,3	101,1
Qumqo'rg'on	326,5	102,5
Qiziriq	471,1	101,1
Sariosiyo	386,3	105,3
Termiz	366,4	106,0
Uzun	406,8	103,8
Sherobod	446,9	105,1
Sho'rchi	680,1	101,6


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Termez shahri (2126,8 ming so'm), Denov (914,3 ming so'm) va Sho'rchi tumanida (680,1 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6% ni tashkil etib, 25,4 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,5% kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


**SURXONDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2020-yil yanvar-fevral)**

Yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 420,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 126,1 mlrd. so'mni tashkil qildi (o'sish sur'ati 32,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra-294,6 mlrd. so'mni tashkil qildi (o'sish sur'ati 6,6 %)

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**




Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Qiziriq(88,2 %) va Qumqo'rg'on (94,7 %) tumanlarida . Eng yuqori o'sish esa Jarqo'rg'on(186.2 %) Muzrabot (163.9 %), Sherobod (113.8 %) va Denov (110.9 %) tumanlarida qayd etildi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, 294.6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,0 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Boysun (96,4 %), Termiz (95,6 %), Sarosyo(94,9 %), Qiziriq (87,1 %), Angor (87,0 %) va Sherobod (82.4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik biznesning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 30,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Muzrabot (82,9



%) , Jarqo'rg'on (65,4 %), Qumqo'rg'on (62,5 %) tumanlari va Termez shahri (32,5 %) da kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	420,7	113,2	126,1	132,4	294,6	106,6
Termiz sh.	75,8	102,9	24,7	96,3	51,1	106,3
Oltinsoy	21,8	101,7	5,2	90,0	16,6	106,1
Angor	22,8	101,3	3,0	77,3	19,8	106,2
Boysun	5,2	105,5	0,2	90,9	5,0	106,1
Muzrabot	16,2	163,9	13,4	184,8	2,8	105,9
Denov	61,5	110,9	18,1	119,6	43,4	107,6
Jarqo'rg'on	58,1	186,2	37,9	300,9	20,2	108,2
Qumqo'rg'o	11,9	94,7	7,4	88,7	4,5	106,6
Qiziriq	11,7	88,2	1,5	40,4	10,2	106,9
Sariosiyo	21,4	107,9	1,1	104,0	20,3	108,1
Termiz t.	41,6	102,0	1,8	59,7	39,8	105,5
Uzun	20,3	103,9	1,0	80,0	19,3	105,6
Sherobod	40,4	113,8	7,1	167,2	33,3	106,5
Sho'rchi	12,0	109,5	3,7	118,5	8,3	105,9



Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
(0371) 230-85-82